

SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING RIVOJLANISHI

Abdunazarov Husan Menglievich

Termiz davlat universiteti

Geografiya kafedrası dotsenti, geografiya fanlari nomzodi.

<https://orcid.org/0000-0002-0264-9132>

UDK 330.15

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi geografik omillar, xizmat ko'rsatish sohalarining tarkibi, Surxondaryo viloyatida xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy joylashishi va rivojlanishi, xususan savdo, transport, ta'lim, tibbiy, yashash va ovqatlanish sohalarining 2018-2022 yillardagi rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilingan hamda yoritilgan.

Kalit so'zlar. Iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, tabiiy, texnik, huquqiy –normativ, ekologik, kundalik xizmatlar, epizodik xizmatlar, doimiy xizmatlar.

Аннотация. В данной статье анализируются и рассматриваются географические факторы, влияющие на территориальное размещение сфер услуг, структура сфер услуг, территориальное размещение и развитие сфер услуг в Сурхандарьинской области, в частности показатели развития сфер торговли, транспорта, образования, медицины, жилищного хозяйства и общественного питания в 2018-2022 годах.

Ключевые слова. Экономические, социально-демографические, природные, технические, нормативно-правовые, экологические, бытовые услуги, эпизодические услуги, постоянные услуги.

Abstract. This article analyzes and examines the geographical factors influencing the territorial distribution of service sectors, the structure of service sectors, the territorial distribution and development of service sectors in the Surkhandarya region, in particular the development indicators of trade, transport, education, medicine, housing and public catering in 2018-2022.

Key words. Economic, socio-demographic, natural, technical, regulatory, environmental, household services, occasional services,

permanent services.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Xizmat ko'rsatish sohaları iqtisodiyot tarmoqlarining muhim sohalaridan biri bo'lib, ushbu tarmoqning rivojlanishi bevosita aholi sonining o'sishi hamda turmush farovonligi taraqqiyoti bilan bog'liq.

Xizmat ko'rsatish sohaları, moddiy ishlab chiqarish sohalaridan farqli o'laroq, xalq iste'mol mollari yoki mahsulot ishlab chiqarmaydi, balki turli xizmatlarni ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish sohaları ko'plab xilma-xil murakkab sohalaridan tashkil topgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Jamiyat taraqqiyotida xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy joylashishi va rivojlanishida bir qancha geografik omillar ishtirok etadi. Xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy joylashishi va rivojlanishiga iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, tabiiy, texnik, huquqiy-normativ, ekologik omillar muhim ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

“Xizmat ko'rsatish sohalarining joylashishi bevosita aholining joylashuvi bilan bog'liq. Har qanday aholi manzilgohida xizmat ko'rsatishning barcha turlari bo'lavermasligi mumkin. Chunki maishiy xizmat korxonalarining faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan miqdorda aholi bo'lishi zarur. Shu tufayli xizmat ko'rsatish tarmoqlarini joylashtirishda aholining u yoki bu xizmat doirasiga bo'lgan talabini, aholining soni, yosh-jins, milliy tarkibi va joylanishini, mavjud joydagi xizmat ko'rsatishning haqiqiy ahvolini o'rganish lozim[5].

Xizmat ko'rsatish sohalarining joylashishi bevosita aholining u yoki bu xizmatga bo'lgan talabning oz-ko'pligi bilan belgilanadi. Aholining xizmatlarga bo'lgan talabini quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin.

1. Kundalik xizmatlar. Aholi har kuni oziq-ovqat savdosi xizmatlaridan (non, sut va boshqa mahsulotlar sotib olish), bolalar bog'chasi, maktab, transport, uy-joy kommunal xizmatlaridan foydalanadi.

2. Epizodik xizmatlar. Kishilarning yilning ayrim vaqtlarida (oy va yilda) bir necha marta foydalaniladigan buyumlarni sotib olish va ta'mirlash, teatr va muzeylarga borish, turistik sayohatlarga chiqish va hok.

3. Doimiy xizmatlar. Ko'pgina oziq-ovqatlar (oyda bir – ikki marta sotib olinadigan) sataroshxona xizmati, kinoteatr, kir yuvish korxonalari xizmati va hok.

Xizmat ko'rsatish sohalari quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. Aholining moddiy ehtiyojlarini qondiradigan tarmoqlar (savdo, umumiy ovqatlanish, uy-joy kommunal xo'jaligi, aholiga maishiy-xizmat ko'rsatish, jamoat transporti, aloqa)

1-jadval

Xizmat ko'rsatish sohalari korxonalarini joylashtirish omillari

Omilar guruhi	Omilar
Iqtisodiy	-iqtisodiy-geografik va transport o'rni; -tarmoq diversifikatsiya darajasi; -shahar xo'jaligini isloh qilishda faollik darajasi -shahar manzilgohlarining urbanizatsiyasi -kapital va joriy xarajatlar qiymati, qurilish muddati -xizmatlar maqsadi -hududiy-iqtisodiy aloqalar -ishsizlik darajasi
Ijtimoiy-demografik	-mintaqa aholisi soni -hududda aholining joylashuvi tarkibi, zichligi -mehnat resurslari bilan ta'minlanishi -ijtimoiy infratuzilmaning holati
Tabiiy	-mintaqaning geografik o'rni -iqlim sharoiti -yer resurslari bilan ta'minlanishi -tabiiy resurslar zaxiralari
Texnik	-texnika va texnologiyalarga erishish imkoniyatlar darajasi
Huquqiy –normativ	-mintaqada huquqiy va soliq boshqaruvi mexanizmlari
Ekologik	-aholi uchun mehnat va yashash sharoitlarini ta'minlash.

2. Aholining ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan tarmoqlar (ta'lim, sog'likni saqlash, madaniyat, san'at, jismoniy madaniyat, sport, turizm, sog'lomlashtirish, Ijtimoiy ta'minot, moliya -kredit va sug'urta muassasalari.

XXI-kelib Jahonda aholi sonining oshib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadal sur'atda rivojlanib borishi bilan xizmat ko'rsatish sohalariga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bordi. Fan texnika taraqqiyotidagi ko'plab ijobiy o'zgarish (ixtirolar) larning amalga oshirilishi nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalari tarkibiga balki, xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. So'nggi yillarda xizmat ko'rsatish

sohalarining aloqa, savdo, umumiy ovqatlanish, transport, ta'lim, sog'likni saqlash, moliya-kredit, sug'urta xizmatlari ayniqsa jadal rivojlantirildi. Ayniqsa Global internet aloqa tizimining ishga tushirilishi aholining axborotlarni olish imkoniyatlari yanada oshirildi. SHuningdek, uyali aloqa vositalaridan foydalanish darajasi va sifati oshirildi. Shu bilan birgalikda xizmat ko'rsatish sohalari tarkibida rekreatsion va turizm xizmatlari jadal sur'atda rivojlantirildi va jahonning ko'pgina mamlakatlarida turizm xizmatlari YaIMning asosiy manbaiga aylandi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohalari aholiga xilma-xil xizmat turlarini ko'rsatib kelmoqda. Xizmat ko'rsatish sohalari aholi

ehtiyojlaridan kelib chiqib, turli xizmat turlari ko'rsatadi (2-jadval).

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga oid bir qator farmon va qarorlar hamda davlat dasturlari qabul qilindi. Ayniqsa so'nggi 7-8 yil davomida sohani rivojlantirishga oid ko'plab farmon va qarorlar qabul qilinib, hayotga tatbiq

qilindi. Shuningdek, "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022yil 1-yanvardagi PQ-104-sonli qarorining qabul qilinishi ham, xizmat ko'rsatish ko'rsatish sohalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

2 -jadval

Xizmat ko'rsatish sohalarining tarkibi

Xizmat ko'rsatish tarmoqlari	Xizmat turlari
Uy-joy kommunal xo'jaligi	Turar-joy binolariga xizmat ko'rsatish, uyni ta'mirlash, elektr va suv ta'minoti, chiqindilardan tozalash, uylarni obodonlashtirish
Ijtimoiy ta'minot	Qariyalar uylariga texnik xizmat ko'rsatish, Pensiya ta'minoti, ijtimoiy sug'urta
Savdo va umumiy ovqatlanish	Do'konlar, kiosklar, restoranlar, kafelar
Maishiy xizmat ko'rsatish	Maxsus tikuvchilik atelyelari, shaxsiy gigiyena bilan bog'liq xizmatlar, uyda parvarishlash, ijara punktlari bilan.
Aloqa xizmati	Pochta, telegraf, telefon, internet, mobil aloqa
Madaniy xizmatlar	Teatrlar, sirkalar, kutubxonalar, madaniyat uylari, nashriyot, televideniya
Ta'lim	Bolalar bog'chalari, maktablar, oliy ta'lim muassasalar
Kredit –moliya xizmatlari	Bank tizimi, moliya va sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari
Rekreatsion xizmat ko'rsatish	Turizm va ekskursiyalarni tashkil etish, dam olish markazlari va uylari
Tibbiy xizmat ko'rsatish	Shifoxonalar, dorixonalar, poliklinikalar, tibbiyot markazlari

Shu bilan birgalikda 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 60-sonli farmoni asosida mamlakatimizni 2022-2026 yillarga iqtisodiy –ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha strategik ustuvor davlat dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturga ko'ra mamlakatimizni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor 100-ta maqsadni amalga oshirish kuzda tutilgan.


Respublikada jami xizmatlarning 3,4 foizi, chakana savdo aylanmasining 6,4 foizi, ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining 3,3 foizi Surxondaryo viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Viloyatda xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi asosan mustaqillik

yillarida jadal sur'atda rivojlandi. Viloyatda 2013-2022-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish hajmi barcha sohalarida o'sishga erishilgan. Viloyat bo'yicha xizmatlar ko'rsatish hajmi tahlil qilinayotgan yillarda 6,6 martaga o'sgan. Ayniqsa tadqiq etilayotgan yillarda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (32,4%), me'morchilik, muhandislik izlanishlari (21,1%), texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar, moliya xizmatlari (15,3%), ta'lim sohasidagi xizmatlar (14,1%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (8,3%) sohalarida o'sish yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etgan.

Shuningdek, viloyat xizmat ko'rsatish sohalarida mahsulot ishlab chiqarishning oldingi yillarga nisbatan o'sish sur'ati ham barqaror rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Faqat ayrim tarmoqlar xususan 2019-yilda

savdo xizmatlari (89,3%), ta'lim sohasidagi xizmatlar (98,3%), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (96,0%), boshqa xizmatlar (96,0%) sohalarida oldingi yillarga nisbatan o'sish past ko'rsatkichni tashkil etgan. Shu bilan birgalikda 2022yilda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (82,7 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (92,1%), ijara va lizing

bo'yicha xizmatlar (97,1%), kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (92,4%), shaxsiy xizmatlar (93,7%), boshqa xizmatlar (82,0 %) sohalarida oldingi yillarga nisbatan o'sish past bo'lgan. Qolgan yillarda xizmat ko'rsatish sohalarida oldingi yillarga nisbatan o'sish yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan.




1-rasm. Viloyatda xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi

Rasm muallif tomonidan Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining "Surxonstat.uz" rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyatda xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tarkibi tahlili shundan dalolat beradiki, 2022-yillarda 12878,0 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan (1-rasm).

Jami xizmatlar hajmi bo'yicha Termiz shahri (28,4%i), Denov tumani (12,6%) alohida ajralib turadi. Xizmat ko'rsatish sohalarining

boshqa sohalar bo'yicha ham Termiz shahri va Denov tumanining ulushi ham yuqoridir. Viloyatda aholiga xizmat ko'rsatish hajmi bo'yicha Bandixon, Boysun, Oltinsoy, Qiziriq tumanlarining ulushi juda past ko'rsatkichni tashkil etadi (2-rasm).




2-rasm. Viloyat tumanlarida jami xizmatlar hajmi

Rasm muallif tomonidan Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining "Surxonstat.uz" rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyatda 2022 yilda aholiga 4697,7 mlrd. soʻmlik savdo, 1926,9 mlrd. soʻmlik transport, 1753,9 mlrd. soʻmlik avtomobil transporti xizmatlari, 611,1mlrd soʻmlik aloqa va axborotlashtirish, 2650,2 mlrd. soʻmlik moliyaviy xizmatlar, 564,6 mlrd. soʻmlik taʼlim, 198,7 mlrd. soʻmlik sogʻlikni saqlash, 408,6 mlrd. soʻmlik yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar koʻrsatilgan. Mazkur yilda

viloyatda aholi jon boshiga 4 640,7 ming soʻmlik bozor xizmatlari koʻrsatilgan.

Viloyatda 2022-yilda 2013-yilga nisbatan jami xizmatlar, hamda savdo xizmatlar hajmi 6,6 martaga, transport xizmatlari hajmi 3,9 martaga, taʼlim xizmatlar hajmi 14,1martaga, sogʻlikni saqlash 8,3 martaga, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar hajmi 32,4 martaga oʻsgan.



3-rasm. Viloyatda xizmat koʻrsatish sohasining rivojlanishi

Rasm muallif tomonidan Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining "Surxonstat.uz" rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyatda 2018-2022- yillarda taʼlim, tibbiy, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmat koʻrsatish sohalari tez surʼatlar bilan rivojlangan (3-rasm).

Soʻnggi yillarda viloyatda aholiga koʻrsatiladigan xizmatlarning sifati va hajmi oshirildi. Aholi sonining oʻsishi bilan shahar va tuman markazlarida hamda aholi salohiyati yuqori boʻlgan qishloqlarda sogʻlikni saqlash, taʼlim, umumiy ovqatlanish, chakana savdo, transport xizmati, aholini uy-joy bilan taʼminlash xizmatlari sohalari rivojlantirildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, viloyatda xizmat koʻrsatish sohasining hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi birinchi navbatda aholisi sonining oʻsishi va uning xizmat turlariga boʻlgan ehtiyojining ortib borishi belgilab beradi. Shu oʻrinda respublikamizda qabul qilinayotgan sohani rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlar shubhasiz aholining turmush farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR ROʻYXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Солиев А ва бошқ. Минтақавий иқтисодиёт. –Т.: 2003.
2. Солиев А. Ўзбекистон географияси. Т.: Университет, 2014. 404 б.
3. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий -иқтисодий ривожланиши . –Т.: “Мумтоз сўз”, 2010.

4. Солиев А.С. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари. (Ўқув қўлланма) Т.: 2007. 90 б.
5. Солиев А., Қурбонниёзов Р. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Тошкент “Ўқитувчи” 2004.
6. Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi. Termiz-2018.
7. O‘zbekiston hududlarining yillik statistika to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi. T.: 2019, — B. 11-14.